

7-SINF “ONA TILI” DARSLIGIDA BERILGAN NUTQ SO‘ZLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID O‘QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Turdiboyeva Charos Juma qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining
Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi*

Djakbarova Mahliyo

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: *Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilarida nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish ,chiroyli va mazmunli nutq so'zlashga o'rgatish, talaffuz qoidalaridan to'g'ri foydalanish va metodik tavsiyalar hamda o'quv topshiriqlari tahlili haqida fikr yuritiladi. Nutqning ravonligini ta'minlashning dastlabki talablaridan biri sifatida talaffuz me'yoridan to'g'ri foydalanish, so'z boyligini oshirish ,tutilmay nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish.*

Kalit so'zlar : *nutq so'zlash, tutilmay nutq so'zlash, talaffuz qoidalari, so'z boyligi ko'rib tushunish.*

АНАЛИЗ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ, СВЯЗАННЫХ С ФОРМИРОВАНИЕМ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ, ПРИВЕДЕННЫХ В УЧЕБНИКЕ «РОДНОЙ ЯЗЫК» ДЛЯ 7 КЛАССА.

Аннотация: В статье речь идет о развитии речевых навыков у учащихся 7 класса общей средней школы, обучении их красиво и осмысленно говорить, правильном использовании правил произношения, методических рекомендациях и обучении анализу заданий. Первым требованием обеспечения беглости речи является правильное использование норм произношения, увеличение словарного запаса, развитие умения беглой речи.

Ключевые слова: говорение, беглая речь, правила произношения, словарный запас, понимание.

ANALYSIS OF EDUCATIONAL TASKS RELATED TO THE DEVELOPMENT OF SPEAKING SKILLS GIVEN IN THE TEXTBOOK “NATIVE LANGUAGE” FOR GRADE 7.

Abstract: *In the state, we are talking about the development of speech skills among students in the 7th grade of general secondary school, teaching ix to speak beautifully and meaningfully, the correct use of production rules, methodological recommendation and training in problem analysis. The first requirement for ensuring speech fluency is the correct use of pronunciation standards, increasing vocabulary, and developing fluent speech skills.*

Key words: *speaking, speaking fluently, pronunciation rules, vocabulary, comprehension*

KIRISH

Ona tili darsliklarida nutq ko'nikmasini shakllantirish jadal rivojlanib bormoqda. Umum ta'lim darsliklari o'quvchilarning mustaqil fikrga ega bo'lishlari, fikrini chiroyli va ravon yetqazib berish, o'qib tushunish, tinglab tushunish, ko'rib tushunish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Nutq shakllaridan og'zaki nutq muloqot jarayonida ko'p qo'llaniladi, o'quvchilar kelajak faolyati davomida o'z fikrlarini og'zaki bayon qiladi. Shu ma'noda, o'quvchini umumta'lim maktabida ravon nutq so'zlashga tayyorlash lozim. Ona tili ta'limida o'quvchilarning har tomonlama ravon va mazmunli nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa yangi avlod darsliklarida bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Har bir o'quvchi o'z mustaqil fikrini tutilmay bayon qilish ko'nikmasi ijtimoiy hayot uchun juda zarur.

Tadqiqotchi M.Djakbarovanning ta'kidlashicha Tilning kommunikativ vazifasi odamlar o'rtasidagi muloqot vositasi ekanligi bilan bog'liq. Bu bir shaxsga-so'zlovchiga, o'z fikrlarini ifoda etishga; ikkinchisi drok etuvchiga, ularni tushunishga, ya'ni qandaydir tarzda munosabatda bo'lishga: e'tiborga olish, xatti-harakatini yoki ruhiy munosabatini o'zgartirishga imkon beradi. Tilshunos olim N.Mahmudovning "Tilning aloqa vositasi ekanligi uning juda ko'plab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmaslik lozim " [2; 10] degan qarashlariga qo'shilgan holda, o'quvchilarni nutq so'zlashga o'rgatishda ruhiy va estetik ta'sir ko'rsatuvchi mulozamatli so'zlardan foydalanish ham muhim ekanligini ta'kidlamoqchimiz.

G'.Hamroyevning ta'kidlashicha, bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili orqali o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar shakllanadi. Agar ona tili oddiy o'quv predmeti emas, qadriyat sifatida o'qitilsa, o'quvchilarda o'z-o'zidan teran tafakkur va milliy g'urur shakllanadi. Shunda ona tilini o'rganishga o'quvchilarda katta qiziqish uyg'onadi. Ona tili orqali o'quvchilar milliy mentalitetni, hayotni, xalqning madaniy merosini o'rganishlari kerak. Albatta, bu edagogic xarakterdagi o'quv topshiriqlari ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini o'rganadilar. Mashq tarkibida berilgan gaplar, matnlar o'quvchining lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi, biroq ular ustida qanday ish olib edagog hali muammoligicha qolmoqda. Ona tili darslarida anglash, fahmlash, nutq so'zlash, insho yozishni o'rgatibgina qolmay, balki topshiriqlar orqali o'quv adabiyotlariga yo'naltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonch hosil qilishadi. O'quv topshiriqlari orqali ona tilini o'qitishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona tili o'qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va edagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish; etnolingvistikaning so'nggi yutuqlarini ta'lim jarayoniga jalb qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

G'. Hamroyev nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda mashqning o'rni qay darajada ekanligini ilmiy-nazariy asoslab bergan: Quyida har bir atama o'z mazmun-mohiyatiga ega ekanligi anglashimiz mumkin. Ya'ni, mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg'ulotdan ko'zlangan ko'nikma va malakaga ega bo'lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, talabani zimmasiga biror mavzuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi[1]

Xulosa qilib aytganda , o'quvchilarning nutq ko'nikmasini o'stirish va ona tili darslaring maqsadini ham aynan o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga asoslanishi kerak .O'quvchini dars jarayonida tutilmay gapirishga va mazmunli nutq so'zlashga o'rgatar ekanmiz,ularga notiqlik sirlarini ham o'rgatib borishimiz kerak, birinchi navbatda o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni o'quvchilarga bera olishimiz lozim. O'quvchini tutilmay gapirishga o'rgatishga yangi avlod darsliklarida yetarlicha ma'lumot , mashq va topshiriqlar berib borilgan albatta,bunday topshiriqlar o'quvchi nutqi rivojlanishida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

7-sinf ona tili darsligida nutqni o'stiruvchi ko'plab mashq va topshiriqlar berilgan.Xususan :

“Tutilmay gapiraman” mavzusi o'quvchilarning o'g'izaki nutqidagi nuqsonlarga qaratilgan bo'lib dars soati uchun 4 soat ajratilgan.Dastlab o'quvchilarga rasm asosida bir qancha savollar berib o'tilgan.

Topshiriq

1-topshiriq



1. Nima deb o'ylaysiz, siz kamera oldida so'zlashga tayyormisiz? Hayotingiz davomida bunday holatni boshingizdan o'tkazganmisiz yoki bu jarayonni kuzatganmisiz?

2.2-rasmni izohlang.Hammaning e'tiborini o'ziga jalb etish va ta'sirli nutq so'zlash uchun nima qilish kerak?

3. Uchinchi rasmda qanday holat tasvirlagan? Birinchi va ikkinchi so'zlovchining holatini tushuntiring

4. 4-rasmdagi holatni izohlab bering. Shu holatning aksi qanday bo'lishi mumkin?

5. Jamoat joylarida va omma oldida so'zlashning o'zaro yaqinlar va oila a'zolari bilan suhbatlashishdan qanday farqi bor? Bunda nimalarga e'tibor berish kerak?

Birinchi navbatda o'quvchilarga rasmdagi nutq so'zlayotgan kishining ikki xil holatini tushuntirib berish kerak va kishilar bilan muloqot jarayonida o'zini qanday tutish kerakligi haqida ham ma'lumot berib o'tish lozim.1-rasmda kamera qarshisida inson o'zini qanday tutishi kerak va nutq so'zlash jarayonida qanday nutq uslubidan foyalanish kerakligi haqida ma'lumot beriladi.2-rasmda tasirli ,ravon va mazmunli nutq ijro etgan insonni ko'rishimiz mumkin bo'ladi va shunday nutq so'zlash ko'nilmasi haqida fikr yuritiladi.3-rasmda aynan o'quvchilarga tanish holat tasvirlangan chunki o'quvchilar uchun ham omma oldida nutq so'zlash bu mashaqqatli ish hisoblanadi .4-rasmda esa o'zaro muloqot jarayoni tasvirlangan bu jarayon har bir o'quvchi uchun tanish hisoblanadi hamda kim bilan muloqot etyotganiga qarab nutq o'zgarishlarga uchraydi.Rasmlar orqali o'quvchilarga mazmunli nutq qanday bo'lishi kerak ,nutq ijro etyotgan vaqtda o'zini qanday tutishi kerakligi ,ovoz toni qay darajada bolishi lozimligi, qanday uslubdan foydalanish lozimligi haqida va aynan qaysi so'zlarga urg'u qo'yib so'zlash qoidalari uqtiriladi .Bu mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda o'qituvchilardan notiqlik san'atidan xabardor bolishi talab etiladi.

2-mashq berilgan ammo bu mashq yozma nutqqa asoslangan hisoblanadi .Bu mashqni yozma shaklda emas balki og'izaki topshiriqqa asoslab berganda yanda samarali bo'lar edi . Bolalar sinfdoshining nutqidagi kamchilikni emas ,o'zining nutqidagi kamchiliklarni izlanib topishiga undashimiz kerak.Masalan bunga qiyidagi topshiriqlarni berishimiz mumkin bo'ladi: "o'zining 1daqiqalik nutqini qog'ozga tushurib kelishi"lozim bo'ladi bu topshiriq asosida biz o'quvchilarning nutqi tezmi ,meyordami yoki sekinmi aniqlab olishimiz mumkin bo'ladi.

Quyidagi 2 ta toshiriq asosida o'quvchilarning nutqidagi kamchiliklarni anglab olish lozim bo'ladi va o'quvchilarning nutqini topshiriqlar asosida ravon ,tasirli,mazmunli nutqqa aylanirishimizmumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbek tilshunosliging zamonaviy yo'nalishlari 2023-yil,25-oktabr[35.36]
- 2.Ona tili ta'limida o'qitish va baholash muammolari.Toshkent 2022[18.19]
- 3.Umumiy o'rta ta'lim maktablaring 7-sinf I darsligi asosidayangi nashr.Toshkent-2022.